

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
QASHQADARYO VILOYAT AKADEMIK LITSEYI**
Davlat o'rta maxsus ta'lim

3930005 – Ijtimoiy-gumanitar fanlar-5 (huquqshunoslik, xorijiy til)
O'rta maxsus ta'lim



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**3930005 – Ijtimoiy-gumanitar fanlar-5
(huquqshunoslik, xorijiy til)**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
QASHQADARYO VILOYAT AKADEMIK LITSEYI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: Barnoyev Sanjar Kurbonovich

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining
Buxoro akademik litseyi**



A'zo: Nasirov Navro'zbek Allamuratovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAA260006
Xulosa raqami	1260
Xulosa sanasi	2.08.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Qashqadaryo viloyat akademik litseyi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Islom Karimov ko'chasi, 52-uy. Litsenziya: № 3111426, 02.02.2026. Guvohnoma: MAS № 0000427, 23.07.2026
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Ijtimoiy-gumanitar fanlar-5 (huquqshunoslik, xorijiy til)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	3930005
Akkreditatsiya usuli	joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 3111426 / 02.02.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	O'rta maxsus ta'lim
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	3930005 – Ijtimoiy-gumanitar fanlar-5 (huquqshunoslik, xorijiy til)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	3930005 – Social and Humanitarian Sciences-5 (Law, Foreign Language)
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	3930005 – Социально-гуманитарные науки-5 (правоведение, иностранный язык)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek, rus
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	3-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	—
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	550 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Islom Karimov ko'chasi, 52-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning (bundan buyon matnda istiqbolli reja deb yuritiladi) mavjudligi</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, davlat ta'lim standarti (bundan buyon matnda DTS deb yuritiladi) va milliy malakalar ramkasi (bundan buyon matnda MMR deb yuritiladi) talablariga muvofiqligi*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani va tasdiqlangani*</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligining ta'minlangani</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida o'quvchilar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi</i>	Muvofiq
3.6.	<i>o'quvchilarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi</i>	Muvofiq
4.	O'quvchilar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi*</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim tashkilotidagi o'quv va laboratoriya xonalarini ta'lim dasturiga mosligi, o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (bundan buyon matnda AKT deb yuritiladi) bilan jihozlangani*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli miqdorda moddiy-texnik baza, jihozlar, asbob-uskunalar va reaktiv moddalar hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>o'quv va laboratoriya xonalarining ta'lim dasturlariga mosligi, xavfsizlik qoidalari va o'quvchilar sonidan kelib chiqib jihozlangani*</i>	Muvofiq
6.5.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani</i>	Qisman muvofiq
6.6.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi*</i>	Muvofiq
6.7.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, Wi-Fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari)</i>	Muvofiq
6.8.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi.

Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilma — kafedralar va bo'limlar akademik litsey direktorining buyrug'i bilan rasman tashkil etilgan, ularning nizomlari tasdiqlangan va faoliyati talab darajasida yo'lga qo'yilgan. Tarkibiy tuzilma tomonidan ta'lim bosqichlari uzluksizligini ta'minlash, mehnat bozori talablari va texnologik o'zgarishlarga muvofiq ta'lim dasturini takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. 2026–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli reja ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) bilan mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, unda moddiy-texnik baza, infratuzilma, axborot texnologiyalari, inson resurslari, moliyaviy manbalar va yuqori turuvchi tashkilot bilan hamkorlik masalalari, shuningdek, xavf tahlili hamda muqobil choralar aks ettirilgan. Ta'lim dasturini monitoring qilish va baholash bo'yicha sifatni ichki ta'minlash bo'linmasi tashkil etilib, mas'ul xodim ajratilgan, ichki baholash tartibi Kengash muhokamasidan o'tkazilgan holda direktor tomonidan tasdiqlangan; mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari so'nggi tendensiyalarini o'rganish bo'yicha monitoring rejasi ishlab chiqilgan. Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi.

Ta'lim dasturini ishlab chiqish bo'yicha yuqori turuvchi tashkilot mas'ullari, soha mutaxassislari va pedagoglardan iborat ishchi guruh tashkil etilgan hamda uning tarkibi rektor tomonidan tasdiqlangan. Ishchi guruh tomonidan ta'lim dasturining maqsadlari, kompetensiyalari va kutilgan o'quv natijalari belgilangan, ularning DTS va MMR talablariga muvofiqligi ta'minlangan. Ta'lim dasturi manfaatdor tomonlar ishtirokida belgilangan tartibda ishlab chiqilib tasdiqlangan: soatlar taqsimoti optimallashtirilib, umumta'lim fanlari 1512 soatdan 1458 soatga kamaytirilgan, huquqshunoslik fanlari 540 soatdan 648 soatga oshirilgan, 9 ta fan Toshkent davlat yuridik universitetining 1–2-kurslari bilan moslashtirilgan. Ta'lim dasturining davomiyligi (umumiy soatlar, o'qish muddati) dasturning maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga muvofiq belgilangan, fanlarning ketma-ketligi, uzviyligi hamda tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro integratsiya ta'minlangan. Ekspert komissiyasi ta'lim dasturini ishlab chiqish jarayonida akademik litseyning bevosita ishtirokini ta'minlash, dasturni amalga oshirishda esa ta'lim tashkilotiga akademik mustaqillik berish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi.

Ishchi o'quv reja va fan dasturlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida ishlab chiqilgan hamda Toshkent davlat yuridik universiteti Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-son bayoni bilan tasdiqlangan; ularni ishlab chiqishda davlat ta'lim standartlari talablari va yuqori turuvchi tashkilot mas'ullarining taklif hamda fikr-mulohazalari inobatga olingan, o'quv (ish) yuklamalarida fanlarning tarkibiy qismlari o'rtasida mutanosiblik ta'minlangan. O'quv jarayoni yuqori turuvchi tashkilot bilan hamkorlikda mehnat bozoridagi zamonaviy ehtiyojlar va sohaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rejalashtirilgan, uni baholash, tahlil qilish va takomillashtirish tartibi ishlab chiqilib, direktor buyrug'i bilan tasdiqlangan. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash bo'yicha tartib, qoidalar, mezonlar va usullar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan normativ-huquqiy hujjat darajasida belgilangan; baholash natijalari yuzasidan shikoyat berish shakllari, murojaatlarni topshirish muddatlari, ularni ko'rib chiqish tartibi, qaror qabul qilish mexanizmi hamda mas'ul komissiya tarkibi tasdiqlangan. Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

4-bob. O'quvchilar faoliyati yo'nalishi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan ta'lim va mehnat bozori ehtiyojlari hamda 9-sinf bitiruvchilarining qiziqishlarini o'rganish bo'yicha tahliliy ishlar amalga oshirilgan bo'lib, foydalanilgan usullar va olingan natijalar indikator talabiga javob beradi. Qabul jarayonlarini tashkil etish bo'yicha normativ-huquqiy asoslar yaratilgan, qabul bo'yicha Maslahat kengashi tarkibi tasdiqlangan, onlayn ro'yxatdan o'tish tizimi, call-center xizmati va maxsus xonalar tashkil etilgan hamda qabul jarayonining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan choralar ko'rilgan. 2026/2027-o'quv yili uchun belgilangan 130 nafar qabul kvotasi litseyning auditoriya fondi, laboratoriya va kompyuter xonalari, axborot-resurs markazi hamda moliyaviy imkoniyatlari bilan asoslangan va pedagog kadrlar tarkibi hamda ularning o'quv yuklamasi bilan uyg'unlashtirilgan. O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va maslahat berish tizimini tashkil etish bo'yicha 2026/2027-o'quv yiliga mo'ljallangan ish reja ishlab chiqilgan va tasdiqlangan; rejada psixologik qo'llab-quvvatlash, motivatsion treninglar, diagnostika ishlari, kasbiy yo'naltirish hamda monitoring tadbirlari nazarda tutilgan. Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi.

Boshqaruv xodimlarining ta'lim sohasidagi ish tajribasi hujjatlar bilan tasdiqlangan. Akademik litsey o'z faoliyatini 2026-yil sentabr oyidan boshlashi munosabati bilan pedagog kadrlar tarkibini shakllantirish va tarifikatsiya jarayonlari davom etmoqda. O'quv-yordamchi xodimlar sonini ta'lim dasturini samarali tashkil etish uchun mos darajada ta'minlash choralari ko'rilgan: shtatlar jadvali shakllantirilib tasdiqlangan, kadrlar zaxirasi ro'yxati tuzilgan. Yangi ta'lim dasturi bo'yicha pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tahlil qilingan va pedagog kadrlar bilan ta'minlash rejasi, ularni qayta tayyorlash hamda malaka oshirish kurslariga yuborish reja-jadvali, shuningdek, reja ijrosini monitoring va tahlil qilishni nazarda tutuvchi nazorat mexanizmi ishlab chiqilgan. Rejada ilmiy daraja yoki amaliy tajribaga ega pedagog kadrlarni dars mashg'ulotlariga jalb qilish nazarda tutilgan bo'lib, shu maqsadda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga rasmiy murojaatlar yo'llangan. Kadrlarning malaka oshirish kurslarida ishtirok etishi hamda oliy ta'lim tashkilotlarida stajirovka o'tashi bo'yicha grafiklar ishlab chiqilgan. Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi.

Inventarizatsiya dalolatnomasiga ko'ra 132 nomdagi 3 824 dona, umumiy qiymati 4 493 717 026 so'mlik tovar-moddiy boyliklar ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, mazkur jihoz va buyumlar akademik litseyning ta'lim dasturi talablariga mos keladi. O'quv xonalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari (11 ta kompyuter, 11 ta proyektor, 11 ta elektron doska) va internet tarmog'i bilan ta'minlangan, raqamli ta'lim muhiti yaratilgan hamda ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi (EMIS AL) orqali ta'lim jarayonini tashkil etish, baholash va monitoring qilish imkoniyati mavjud. Axborot-resurs markazi fondi 5 311 nusxa adabiyotdan iborat bo'lib, 50 o'rinli o'quv zali, kompyuter xonasi va elektron kutubxonadan foydalanish imkoniyati yaratilgan. O'quv va laboratoriya xonalari o'quvchilar kontingentidan kelib chiqib o'rindiqlar va ish joylari bilan ta'minlangan, xavfsizlik qoidalari, texnika hamda yong'in xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalar, birinchi tibbiy yordam vositalari, xavfsizlik jurnali va evakuatsiya sxemalari mavjud. Shu bilan birga, laboratoriya xonalarini reaktiv moddalar, reagentlar va asbob-uskunalar bilan jihozlash, umumta'lim fanlari darsliklari bilan ta'minlash hamda inklyuziv ta'lim vositalarini olish yuzasidan tegishli tashkilotlarga murojaatlar yo'llangan bo'lsa-da, ularning natijalari hujjatlar bilan tasdiqlanmagan; sport zali va sport maydonchasi joriy holatda dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun to'liq tayyor emas. Shu sababli

6.5-mezon qisman muvofiq, yo'nalishning qolgan mezonlari esa muvofiq deb baholandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Inklyuziv ta'lim bo'yicha ta'minot amalda shakllantirilmagan: maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar hamda inklyuziv ta'lim uchun axborot-kommunikatsiya vositalari, elektron ta'lim resurslari va dasturiy ta'minot (audio-video resurslar, Brayl alifbosi, subtitrlar) mavjudligini tasdiqlovchi dalillar taqdim etilmagan — yagona asos sifatida viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga yo'llangan so'rov xati keltirilgan (6.5.2 va 6.5.3-indikatorlar).
- ✓ Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun mavjud sport zali va sport maydonchasi joriy holatda dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun tayyor emas; sport kompleksini modernizatsiya qilish loyihasi ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ishlar hali yakunlanmagan (6.8.3-indikator).
- ✓ Umumta'lim (10-sinf) fanlari bo'yicha darsliklar fondi shakllantirilmagan — ehtiyoj 1 456 nusxani tashkil etadi, ta'minlanganlik koeffitsienti hozircha 0; laboratoriya xonalari reaktiv moddalar, reagentlar va asbob-uskunalar bilan jihozlanmagan; umumta'lim fanlari bo'yicha pedagog kadrlarni hamda o'quv-yordamchi xodimlarni ishga qabul qilish jarayoni yakunlanmagan va tasdiqlangan shtatlar jadvalida o'quv-yordamchi lavozimlar nazarda tutilmagan.
- ✓ Taqdim etilgan hujjatlarda texnik va uslubiy nomuvofiqliklar mavjud: ayrim ma'lumotnomalarda sanalar noto'g'ri ko'rsatilgan (2025-yil o'rniga 2026-yil), ma'lumotnomalardagi xodimlar soni va lavozimlari tasdiqlangan shtatlar jadvaliga to'liq mos kelmaydi, bir qator hujjatlar bajarilgan ishlarni emas, rejalashtirilgan harakatlarni ifodalovchi kelasi zamon shaklida bayon etilgan, shuningdek, ayrim raqamli ma'lumotlarda va imloda xatoliklar uchraydi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓Tarkibiy tuzilmalarning moddiy-texnik bazasi va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi bo'yicha aniq moliyaviy rejalar ishlab chiqilsin, tuzilmalar faoliyati samaradorligini baholash mexanizmi (KPI) joriy etilsin; istiqbolli rejadagi har bir vazifa uchun moliyalashtirish manbai ko'rsatilib, "doimiy" muddatlar o'rniga aniq sanalar va bosqichlar hamda o'lchanadigan natija ko'rsatkichlari belgilansin.
- ✓Laboratoriya xonalarini reaktiv moddalar, reagentlar va asbob-uskunalar bilan jihozlash, umumta'lim fanlari darsliklari bilan ta'minlash yuzasidan yuqori turuvchi tashkilot hamda viloyat boshqarmalariga yo'llangan murojaatlarning o'quv yili boshlangunga qadar ijobiy hal etilishi ta'minlansin; fanlar kesimida "ehtiyoj – olingan – ta'minlanganlik koeffitsienti" jadvali shakllantirilib, akkreditatsiya hujjatlariga kiritilsin.
- ✓Inklyuziv ta'lim uchun maxsus o'quv materiallari, jihozlar, yordamchi texnik vositalar hamda audio-video resurslar, Brayl alifbosi va subtitrlardan foydalanish imkoniyati o'quv yili boshlangunga qadar amalda yaratilib, isbotlovchi hujjatlar bilan tasdiqlansin.
- ✓Sport zali va sport maydonchalari o'quv yili boshlangunga qadar ichki imkoniyatlardan foydalangan holda joriy ta'mirlansin, sport kompleksini modernizatsiya qilish loyihasining ijrosi monitoring ostiga olinsin.
- ✓Pedagog va o'quv-yordamchi xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish jarayoni yakunlanib, har bir fan tegishli mutaxassislik va malakaga ega pedagog bilan ta'minlansin; malaka oshirish rejalar TDYU hamda tegishli malaka oshirish muassasalari bilan kelishilgan holda ishlab chiqilsin; EMIS AL tizimiga integratsiya texnik dalillar bilan hujjatlashtirilsin.
- ✓O'quvchilarni akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalishlar bo'yicha qo'llab-quvvatlashni yagona tizim sifatida qamrab oluvchi reglament hamda qabul jarayoniga oid ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibini belgilovchi alohida nizom ishlab chiqilsin; qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar rasmiy veb-sayt, stend va bukletlar orqali joylashtirilib, isbotlovchi materiallar to'plansin.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Qashqadaryo viloyat akademik litseyining 3930005 – "Ijtimoiy-gumanitar fanlar-5 (huquqshunoslik, xorijiy til)"


ta'lim dasturi bo'yicha o'tkazilgan tashqi baholash natijalariga ko'ra, dasturning barcha tarkibiy unsurlari — samarali tashkiliy-boshqaruv va sifatni ichki ta'minlash tizimi, davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan ta'lim dasturi va ishchi o'quv reja, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini xolis baholash tartiblari, qabul jarayonining shaffofligi hamda o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, pedagog kadrlar bilan ta'minlash rejasi va zamonaviy moddiy-texnik baza — maxsus davlat akkreditatsiyasi mezonlariga muvofiq shakllantirilgani aniqlandi.

Baholangan 6 ta yo'nalish (bob) va 26 ta mezondan 25 tasi muvofiq, 1 tasi (6.5-mezon — inklyuziv ta'lim uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi) qisman muvofiq deb baholandi. Aniqlangan kamchiliklar — inklyuziv ta'lim vositalari, umumta'lim fanlari darsliklari fondi, laboratoriya jihozlari, sport infratuzilmasining holati va kadrlar tarkibini to'liq shakllantirish masalalari — akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar qatoriga kirmaydi, biroq ta'lim tashkiloti faoliyatini boshlagunga qadar bosqichma-bosqich, izchil va monitoring ostida bartaraf etilishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ekspert komissiyasi mazkur ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish maqsadida vakolatli Agentlikka ijobiy xulosa va tavsiya berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi mezonlariga MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.08.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

